

---

## HAR BIR MUROJAATNI IJOBİY HAL ETISH CHORALARI KO'RILMOQDA

Farg'ona shahar hokimi, 1-sektor rahbari Vosiljon Nazarov tomonidan "Yangi soy" mahallasida jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi mudiri G'ayratjon Pattayev ham ishtirok etdi. Unda yuz nafardan ortiq fuqarolardan tushgan murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. 30 ga yaqin murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Murojaatlarni joyida o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha fuqaroga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shundan so'ng, o'tgan qabullar davomida tushgan murojaatlarning ijobiy hal etilganlik darajasi o'rganilib, mas'ullarning axborotlari eshitildi. Ish bilan ta'minlash, tikuv mashinasi ajratish hamda sog'lig'ini tiklashda amaliy yordam olish kabi masalalar ham alohida nazoratga olinib, hal etish choralari ko'rildi.

2022-07-21 14:34:11